| <b>Xasanova Nafisa Shavkatovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Mehnat bozorida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda yoshlar bandligini takomillashtirish.....                                                                  | 566 |
| <b>Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi</b>                                                                                                                             |     |
| Sanoat korxonalari faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini baholashga doir uslubiy yondashuvlar.....                                                           | 572 |
| <b>Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna</b>                                                                                                                                |     |
| Amir Temur davrida hunarmandchilik siyosatining o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari .....                                                                               | 578 |
| <b>Zikrillayev Jaxongir Sarvar o'g'li, ilmiy rahbar: Nasimov Baxtiyor Vasiyevich</b>                                                                                   |     |
| Infratuzilma obyektlari rivojlanishining turizm sohasidagi o'rni.....                                                                                                  | 583 |
| <b>Toyrova Amina Baxtisher qizi</b>                                                                                                                                    |     |
| Korxonalarda moliyaviy investitsion portfelni jalb qilish va rag'batlantirishning zamonaviy shakl va usullari tahlili .....                                            | 588 |
| <b>Haydarov Humoyun Begmurod o'g'li</b>                                                                                                                                |     |
| Kichik biznes korxonalari raqobatbardoshligini tadqiq etishga konseptual yondashuvlar .....                                                                            | 592 |
| <b>K. Q. Tajibayev</b>                                                                                                                                                 |     |
| Бухгалтерский учет дебиторской и кредиторской задолженности в современной экономике .....                                                                              | 599 |
| <b>Камолова Феруза Кахрамоновна</b>                                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                              |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbekistonda mehmonxona sohasidagi mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....                                              | 603 |
| <b>Mirzayeva Lola Shavkatovna</b>                                                                                                            |     |
| Turizmni rivojlantirishda "yashi" marketingni o'rni.....                                                                                     | 607 |
| <b>Normurodova Zebo Eshmaxmatovna</b>                                                                                                        |     |
| Inson kapitalini boshqarishning xorij tajribasi.....                                                                                         | 612 |
| <b>Ruzmetova Gulira'no Atabekovna</b>                                                                                                        |     |
| Agrasanoat majmuasida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishirish va<br>qayta ishlashda klasterlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari.....  | 620 |
| <b>Salixov Sherzod Abduxakimovich</b>                                                                                                        |     |
| Mamlakatimizda mehnat bozorida ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish .....                                                               | 625 |
| <b>Xusanova Gulsum Baxtiyorovna</b>                                                                                                          |     |
| Budjetdan tashqari mablag'lar hisobi va nazoratini takomillashtirish .....                                                                   | 628 |
| <b>Ostonokulov Azamat Abduraimovich, Alimardonov Asrorjon Alimardonovich</b>                                                                 |     |
| Xizmat ko'rsatish sohasida investitsion jarayonlar rivojlanishining xorij tajribasi .....                                                    | 635 |
| <b>Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| Xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat resurslaridan foydalanish<br>samaradorligini baholash ko'rsatkichlari.....                       | 640 |
| <b>Muhammadamin Erdon o'gli Erdonov</b>                                                                                                      |     |
| Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста.....                                                          | 644 |
| <b>Насиров Дилшод Фархадович</b>                                                                                                             |     |
| Влияние прямых иностранных инвестиций (пии) на экономику Узбекистана .....                                                                   | 654 |
| <b>Юлдашев Нодирбек Сайдибурханович</b>                                                                                                      |     |
| Qulay investitsiya muhiti – xorijiy investitsiyalar oqimini oshirishning asosiy omilidir.....                                                | 659 |
| <b>Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| Biznesni loyihaviy moliyalashtirish va uning asosiy yo'nalishlari.....                                                                       | 664 |
| <b>Razzakov Jasur Xamraboyevich</b>                                                                                                          |     |
| Inflation and Unemployment: Evidence from Uzbekistan .....                                                                                   | 670 |
| <b>Mahmudov Nosir, Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi</b>                                                                                     |     |
| Milliy mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqishda marketing strategiyalaridan foydalanish .....                                             | 677 |
| <b>Meliqulov Abduhalil Norinovich</b>                                                                                                        |     |
| O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirishda<br>xorij tajribalaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari ..... | 683 |
| <b>Ortiqov Avazbek Bahrom o'g'li</b>                                                                                                         |     |
| Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlarida ratsional g'oyalar komparativistikasi.....                                                         | 689 |
| <b>Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna</b>                                                                                                         |     |
| Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari.....                                                               | 694 |
| <b>Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li</b>                                                                                                   |     |
| The Importance of the World Trade Organisation (WTO) and Uzbekistan's Efforts to Join It.....                                                | 699 |
| <b>Urozaliev Elyor, Khoshimova Sevara</b>                                                                                                    |     |
| Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar.....                                                          | 705 |
| <b>Abduqaxorov Ulug'bek Abdug'aniyevich</b>                                                                                                  |     |
| Yangi O'zbekistonda turizmning drayver sifatida barqaror rivojlanish yo'nalishlari .....                                                     | 709 |
| <b>Tuxliyev Iskandar Suyunovich</b>                                                                                                          |     |
| Mahalliy soliqlar va yig'implarning iqtisodiy mohiyati hamda ularni undirishning xususiyatlari .....                                         | 713 |
| <b>Tuychiyev Kamoliddin</b>                                                                                                                  |     |
| Tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirishda xorijiy mamlakatlarning<br>ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari .....         | 717 |
| <b>Yadgarov Nodir Ravshanovich</b>                                                                                                           |     |
| Organik qishloq xo'jaligiga o'tish bosqichlarining tashkiliy jihatlar va iqtisodiy asoslari.....                                             | 723 |
| <b>Amirqulov Shuxrat Olimovich</b>                                                                                                           |     |
| Davlat xaridlari jarayonida e'tiborsiz ijrochilarni imkoniyatini cheklash masalalari .....                                                   | 727 |
| <b>G'ofurov Temur Baxrom o'g'li</b>                                                                                                          |     |





|                                                                                                                 |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion loyihalarni faol tashkil etish istiqbollari .....                       | 730 |
| <b>Utkurov Kozimjon Dilmurod o'g'li</b>                                                                         |     |
| Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda transport tadbirkorligi faoliyatini rivojlanish imkoniyatlari .....             | 733 |
| <b>M. Masharipova, I. Ruzmetova, D. Kuramboyeva</b>                                                             |     |
| Sug'urta faoliyatini takomillashtirishda andarrayting xizmatining o'rni .....                                   | 737 |
| <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b>                                                                          |     |
| O'zbekistonda eksportni sug'urtalash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari .....                     | 741 |
| <b>Qarshiyev Keldiyor Eshpulatovich</b>                                                                         |     |
| Kambag'allikni qisqartirishda aholini tadbirkorlikka yo'naltirish .....                                         | 745 |
| <b>Rajabboyev Muzaffar Erkaboyevich</b>                                                                         |     |
| Yoqilg'i-energetika korxonalarining moliyaviy barqarorligining ilmiy nazariy asoslari .....                     | 749 |
| <b>Xusanov Qaxramon Nishonovich</b>                                                                             |     |
| Оценка результатов реформы бухгалтерского учета в Республике .....                                              | 753 |
| <b>Киличева Фарида Бешимовна, Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</b>                                               |     |
| Эффективность программ соответствия в различных компаниях .....                                                 | 757 |
| <b>Ахмедов Бехзод Ахмедович</b>                                                                                 |     |
| Элементы системы внутреннего контроля в выбранном финансовом институте .....                                    | 762 |
| <b>Хасанов Кахрамон Ахмаджанович</b>                                                                            |     |
| Authentic Leadership Unleashed: A Comparative Analysis of Leadership Styles .....                               | 767 |
| <b>Esanova Shohida Utkirovna</b>                                                                                |     |
| Investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi moliyaviy risklarni boshqarishning ilg'or xorij tajribalari ..... | 774 |
| <b>Madiyarov Sanjar Gulyamovich</b>                                                                             |     |
| Paxta-to'qimachilik klasterlarida xarajatlar hisobining uslubiy masalalari takomillashtirish .....              | 781 |
| <b>Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich, Umaraliyev Isomidin Ismonjon o'g'li</b>                               |     |



# RENE DEKART VA BLEZ PASKAL TA'LIMOTLARIDA RATSIONAL G'OYALAR KOMPARATIVISTIKASI

**Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna**

Falsafa fanlari doktori, "ALFRAGANUS UNIVERSITY" nodavlat oily ta'lim tashkiloti, ijtimoiy fanlar fakulteti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası professori



**Annotatsiya:** Ijtimoiy bilimlar sohasida ijod qiluvchi olimlarimiz falsafiy merosini, g'arbu-sharq olimu-fuzalolari yaratib ketgan babaho ma'naviy qadriyatlarni o'rganish ishiga asosiy e'tiborni kuchaytirmoqdalar. Buning uchun esa hozirgi falsafiy qarash durdonalari bilan qurollanishimiz kerak. Mana shundagina falsafiy fikrlar taraqqiyotiga, diyorimizda yaratilgan tafakkur taraqqiyotiga, hozirgi zamon falsafasining asosiy muammolariga to'g'ri va xolisona baho bera olamiz. Shuning uchun ham falsafa muammolarini, falsafiy merosni tadqiq qilish doimo kun tartibida turuvchi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi.

**Kalit so'zlar:** kartezianchilik, ratsionallik, latif materiya, bo'shliq, makon, zamon, kompozitsiya metodi.

**Abstract:** Our scientists, creatively working in the field of social sciences, are paying more and more attention to the study of the philosophical heritage and valuable spiritual values created by Western and Eastern scientists. To do this, we need to arm ourselves with the masterpieces of the current philosophical view. Only in this way will we be able to correctly and objectively assess the development of philosophical ideas, the development of thinking created in our country, and the main problems of modern philosophy. That is why the study of problems of philosophy and philosophical heritage always remains one of the pressing issues on the agenda.

**Key words:** cartesianism, rationality, matiere subtile, empty space, space, time, method of composition.

**Аннотация:** Наши ученые, творчески работающие в области общественных наук, все больше внимания уделяют изучению философского наследия, ценных духовных ценностей, созданных западными и восточными учеными. Для этого нам необходимо вооружиться шедеврами нынешнего философского взгляда. Только так мы сможем правильно и объективно оценить развитие философских идей, развитие мышления, созданного в нашей стране, и основные проблемы современной философии. Именно поэтому исследование проблем философии и философского наследия всегда остается одним из актуальных вопросов повестки дня.

**Ключевые слова:** картезианство, рациональность, мягкая материя, пустое пространство, пространство, время, способ композиции.

## KIRISH

Paskal Dekart tufayli falsafaga yaqinlashdi, bu birinchidan. Ikkinchidan, undan "fikrlash tamoyilini o'zlashtirdi" va ijodiy rivojlantirdi. Uchinchidan, uning aksiomatik-deduktiv uslubini yuqori baholadi va o'zining "geometrik uslubini" ishlab chiqdi. Ilmiy metodologiya sohasida, ilmiy bilim tamoyillarini tushunishda ular opponent emas, balki hamfikir bo'lganlar. Bizning fikrimizga ko'ra, ularni qarama-qarshi qo'ygan mualliflar nohaq. Paskalcha induktivlik va dekartcha deduktivlik bir hodisaning ikki tomonidir. Dekart va Paskal ta'limotlarida skeptitsizmga qarshi kurashda umumiy chizgilar bor. Paskal Dekartning "gnoseologik optimizmini" yuqori baholaydi, o'zi ham "ashaddiy pirronizmga" qarshi chiqadi. Garchi biz "hammasini" bila olmas ekanmiz, bu "hech nimani" bilmaymiz degani emas. Paskal haqiqatning mutlaqligi va nisbiyligi o'rtasidagi nozik dialektik munosabatni his qila olgan. Tashqi hissiyot, tafakkur, "qalbiy intuitsiya" darajasidagi haqgo'ylikni tan olgan holda, ehtimollik nazariyasini asoschisi sifatida, mutafakkir "ehtimoliy bilimning" obyektiv va haqiqat deydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Falsafiy fikr taraqqiyotida Rene Dekart va Blez Paskal ta'limotlari o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ularning ta'limotlari Fransiyada ikki diametral qarama-qarshi tizimlarni tashkil qiladi. Bunday fikr tarafdorlariga V.Kuzen (Kuzen, 1857: 325), Ye.Droz (Droz, 1886: 236), L.Shestov (Shestov, 1923: 325), L.Brenshvig (Brenshvig, 1944:



294) va boshqalar kiradi. Albatta, bular o'tgan asrlardagi fikrlar hisoblanadi. Lekin hozirgi kunda ham pas-kalshunoslikda ularning ta'sirini sezish mumkin. Bundan tashqari, Dekart va Paskal falsafiy qarashlarini qiyosiy o'rganish XVII asrda g'oyaviy kurash qaysi yo'nalishda ketganligidan va qanchalik keskin bo'lganligidan dalolat beradi.

## METODOLOGIYA

Tadqiqotda birlamchi manbalarning matnii va konseptual analizi yetakchilik qiladi. Mavzu sistemati-k ravishda oddiydan murakkabga tomon ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kerakli o'rinlarga Rene Dekart va Blez Paskal falsafiy g'oyalari boshqa faylasuflarning qarashlari bilan qiyoslash orqali ochib berilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Dekartning ratsionalizm, deduktiv metodologiya, gnoseologik ko'tarinkilik, o'ziga xos "antiekzistensial" yo'nalishdagi falsafasi Paskalning yorqin ifodalangan "ekzistensial" dunyoqarashi, mistiklik, induktiv metodologiya va skeptitsizmga qarshi qo'yiladi. L.Brenshvig Dekart va Paskal o'rtasida antogonizmga urg'u beradi. Bu antogonizm nafaqat falsafa va dinga tegishli, balki ularning ilmiy qarashlariga ham taalluqlidir, ya'ni "Paskal Dekart tuzgan ilmiy modelni butunlay buzib tashlashga harakat qilgan" (Brenshvig, 1944: 158), – deb aytadi. Bunday farq nazariy "kontrast" ularning xarakteriga ham xosdir. Agar Dekart xotirjam, haqiqatni bamaylixtir izlovchi, o'z maqsadini aniq belgilagan va sobitqadamlik bilan uni amalga oshiruvchi, daho, fan va falsafadagi o'z o'rnini aniq biluvchi, nihoyat, ehtiyotkor, sovuqqon inson, stoiklar singari shaxsiy va ijtimoiy hayot fojiiyalarini kuzatuvchi bo'lsa, Paskal – fig'on qiluvchi, abadiy ikkilanuvchi, haqiqatni "entikib" izlovchi, qahramon va fan fidoiysi, bir vaqtning o'zida fandagi, insoniyat hayotidagi, madaniyatdagi nomukammallikdan junbushga keluvchi, ochiq g'oyaviy kurashdan tab tortmaydigan (masalan iyezuitlar bilan g'oyaviy kurash), o'tkir aql va qaynoq qalb egasidir. Zamonaviy paskalshunos M.Legern Dekart xarakterini "qahramon", Paskalni esa "fojiyaviy" (Le Guern, 1971: 176), deb atagan.

Lev Shestov masalaga juda chuqur kirib, Paskalni qadimiy faylasuf deb, Dekartni esa zamonaviy faylasuf, deb ataydi: "Yulian singari Paskal davrni butunlay chappasiga aylantirib yuborishni xohlaydi, zero, u Renessans davrida insoniyat erishgan hamma narsadan voz kechishni talab qiladi. Hammasi yangilandi, aynan shunda uning tarixiy taqdiri namoyon bo'ldi. Lekin Paskal yangilikdan qo'rqdi... Tarix bundaylarga shavqat qilmaydi. Paskal emas, balki Dekart Yangi davr falsafasining otasi hisoblanadi ... Tarixning qarori shu: Paskal bilan g'ururlanadilar, Dekartning ketidan ergashadilar. Bu hukm mulohazaga o'rin qoldirmaydi" (Shestov, 1923: 2-4). Albatta, bunday g'ayrioddiy hukm Paskalning Yevropa falsafasidagi o'rnini buzib ko'rsatadi, uning falsafasi ko'p ma'noli va ziddiyatli bo'lgan. L.Shestov nazarda tutgan fikr Paskalning diniy ta'limotiga tegishli bo'lib, uning diniy qarashlari ilk xristianlikdagi Avgustin ta'limotiga hamohang bo'lgan. Fan va falsafa sohasida mutafakkir nafaqat o'zining davri bilan hamqadam bo'lmay, balki o'z davridan 200-300 yilga o'tib ketib, hozirgi davrga yaqinlashgan (Strelsova, 1979: 16).

Dekart bilan Paskalni qarama-qarshi qo'yishga oshiqib, yuqoridagi tadqiqotchilar, ularning pozitsiyalarini buzib ko'rsatadilar. Paskalning skeptitsizmi, induktivizmi yoki mistitsizmini mutlaqlashtirib qo'yadilar. Aslida Paskalning dunyoqarashi keng qamrovli bo'lgan.

Jumladan, bunda Paskalning Dekart falsafasiga tanqidiy va salbiy munosabati bo'rttirib ko'rsatiladi. Lekin ularning sxolastik falsafaga qarshi umumiy munosabati soyada qoladi. Xuddi shunday Dekartning Paskalga g'oyaviy ta'siriga ham e'tibor berilmaydi. Bir narsaga jiddiy e'tibor qaratishimizga to'g'ri keladi, Paskal nafaqat Dekartning ba'zi bir g'oyalarini o'zlashtiradi, balki buyuk ratsionalistning bir yoqlama ta'limotlarini to'g'rilab ketadi.

1647-yilda Paskal Dekart bilan uchrashadi. Unga qadar Paskal Dekartning "Metod haqida mulohazalar", "Metafizik mulohazalar" va "Falsafa asoslari" nomli asarlari bilan tanishib chiqqan edi. Xuddi shunday "Yozishmalar"ni ham o'qib chiqadi. Dekartning bu asari 1657-yilda Klersele tomonidan nashr qilingan edi. Paskal avvalam bor, Dekartning "latif materiya" (matiere subtile) haqidagi gipotezasiga e'tiroz bildiradi. Unga ko'ra latif materiya bo'shliqni to'ldiradi, xuddi shunday trubkadagi simobgacha bo'lgan bo'shliq "torichelli bo'shlig'i"ni Paskal bilan bo'lgan suhbatda Dekart ma'qullagan edi. Yosh olim katta nufuzga qarshi hech nima demaydi, lekin faylasuf olim iyezuit ruhoni Noelga qarshi e'tiroz bildiradi (Noel La-Flesh kollejida Dekartning o'qituvchisi edi). Noel Paskalni inkor qilish uchun Dekartning tabiatda bo'shliqning yo'qligi haqidagi gipotezasidan foydalanadi. Jumladan, Noel "horror vacui" nomli sxolastik aqidaga tayangan. Dekart esa bu aqidani eskirib qolgani uchun inkor qilmagan. Faylasuf ko'lamni moddiy substansiyaning atributi sifatida tushunadi va uni faqat geometrik makon, deb talqin qiladi. Ko'lam barcha tanalarning, shu jumladan, umuman materiyaning ham "ichki joyi"dir, materiya ajralmagan holda mavjud. Xuddi shunday uning fizikasida materiyaqa qarshi turgan



mutlaq bo'sh makon tushunchasi butunlay yo'qoldi: "Faylasuflar tushunadigan bo'sh makon so'ziga kelsak (ya'ni hech qanday substansiya yo'q makon), shu narsa ayon bo'ladiki, dunyoda makon yo'q, chunki ichki joy sifatidagi makon tana ko'lamidan farq qilmaydi" (Dekart, 1950: 473). Nisbiy bo'shliq bu shunday makonki, "unda biz o'ylagandek, bo'lishi kerak bo'lgan narsa yo'q", masalan, suvi yo'q idish, balig'i yo'q ko'l, yuki yo'q korabl va h.k. Buni u tan olgan (Dekart, 1950: 473).

Dekart materiya va makonni shunday tushunchasidan "latif materiya" gipotezasi kelib chiqadi. "Latif materiya" butun borliqni to'ldiradi, narsalar orasidagi o'rinlarni ham. Shuning uchun ham sxolastik metafizika doimo qo'llashga uringan "hech qanday sirli kuchlar uchun ham", bo'shliq uchun ham joy qolmaydi. Dekart shu yo'l bilan tabiat hodisalarini (magnetizm, tortilish, issiqlik va h.k.) tushuntirishga harakat qilgan. Dekart fizikasi materiya va mexanik harakat tamoyillaridan kelib chiqib, sxolastikaga qarshi bo'lgan, lekin eksperimental dalillarning yetishmasligi, uni har bir bosqichini aqliy-mulohazali qilib qo'yadi. Aynan shu jihat Paskalni e'tiroziga olib keladi. Paskalning g'oyalari konkret-aniiq yo'nalishda bo'ladi. Noelga yozgan xatida "ko'rinmaydigan, eshitilmaydigan, hech qanday hislar bilan sezilmaydigan materiya" va hech qanday ilmiy eksperiment bilan tasdiqlanmagan gipotezani Paskal inkor qiladi: "Agar shunday asoslashga tayanadigan bo'lsak, unda eng katta murakkabliklarni ham jo'n yechish mumkin. Shunda dengizlarning toshqinini ham, magnitning tortilishini ham osongina tushuntirish mumkin, materiya shunday tuzilgan deb" (Pascal, 1963: 202). Tabiat hodisalarini tadqiq qilganida Paskal dalillar, tajribalar va eksperimentlarni ma'qul topadi. Shuning uchun ham uning tabiat haqidagi tasavvurlari aniiq-lo'nda ko'rinishga ega. Dekartning mavhum aqliy tuzilmalaridan farq qiladi. Manjoning guvohligiga ko'ra, "Paskal karteziyanicha falsafani xuddi Don-Kixot romanidek, tabiat haqidagi roman deb atagan" (Pascal, 1963: fr. 1008).

Vakuum bilan o'tkazilgan eksperimentlardan muvafaqqiyatli natijalarga erishgan Paskal o'z xulosalarida qat'iy va sobitqadam, umumfalsafiy ma'noda juda ehtiyotkor edi. Albatta, "torichelli bo'shlig'ini" u mutlaq, deb olmaydi, uni shartli deb biladi, ya'ni bu bo'shliq havo bosimi ostida paydo bo'ladi. Paskal uni "ko'rinadigan bo'shliq" (vida apparent) deb atab, "u tabiatda ilgari noma'lum bo'lgan yoki hissiy qabul qilinadigan materiya bilan to'lmagan "bo'sh makon" (Pascal, 1963: 202) sifatida aniqlaydi. Qachonki, davom etadi Paskal: "ana shu "ko'rinadigan bo'shliq" qandaydir materiya bilan to'lmagan ekan, u haqiqiy yoki mavjud bo'shliq bo'lib qolaveradi" (Pascal, 1963: fr. 1008). Paskalning ana shu xulosalariga Dekartning kinoyali munosabatini adolatli deb bo'lmaydi: "Ana shu kitobni yozgan o'spirinning boshida bo'shliq ko'p va juda xovliqyapti. Bu yerda gap Paskalning "Bo'shliq haqida yangi tajribalar" nomli asari ustida ketyapti. Menimcha, undan kattaroq kitobda ham uning asoslari yetarli darajada ishonchli bo'lmaydi" (Descartes, 1960: 376). Lekin ikki mutafakkir ham o'zicha haq edi: Dekart – makonda mutlaq bo'shliqni inkor etgan faylasuf sifatida, Paskal esa – havo bosimi ostida paydo bo'ladigan bo'shliqning tabiiy-ilmiy asosini tan oluvchi olim sifatida. Dekart yosh olimni iqtidorini tan olgisi kelmadi. 16 yoshli o'spirinni "Kanonik kesishmalar haqida tajriba" muallifi ekanligini shubha ostiga oladi. Bu g'oya Paskalning otasiga tegishli, deb o'ylaydi. Analitik geometriya asoschisi proyektiv geometriyani mulohazaviy yo'l bilan rivojlantirish istiqbollarini tan olmadi, xuddi shunday Paskal ham analitik geometriyani kelajagi yo'q, deb o'yladi. Paskal Dekart tomonidan ishlab chiqilgan matematikaning analitik yo'nalishiga yetarlicha baho bermaganligi, tadqiqotda keng qo'llanilgan algebrak usullarni qabul qilmaganligi, harfli timsollardan voz kechganligi keyingi chuqur tadqiqotlariga zarar keltirdi. Cheksiz zarralarni hisoblash sohasida, differensial va integral hisoblashning haqiqiy ijodkori bo'lishda, aynan shu umumlashtirish Paskalga yetishmadi. Lekin matematik analiz tarixida Paskal Nyuton va Leybnitsdan avval turadi.

Pyu-de-Dom tog'ida Paskalning g'oyasi bo'yicha "suyuqlik muvozanati eksperimenti" o'tkaziladi. Bu tajribaga ko'ra, vakuumda havo bosimi ostida bo'shliq paydo bo'ladi. Dekart ana shu g'oyani Paskalga berganligi haqida davo qiladi. Bu bahsning bayonnomasi bo'lmaganligi uchun kim haqligini uzil-kesil aytib bo'lmaydi. Paskal esa bu munozarani javobsiz qoldiradi. Lekin Dekart bo'shliq haqidagi g'oyani eksperiment yo'li bilan ham, nazariy yo'l bilan ham amalga oshirmadi, unga ahamiyat bermadi. Aynan buni Paskal ijodiy o'ziga xoslik bilan, eksperiment texnikasida topqirlik bilan ro'yobga chiqardi. Shuning uchun ham tarix bu g'oyaga mualliflikni adolatli tarzda Paskalda qoldirdi. "Latif materiya" gipotezasi Paskalning isbotiga ko'ra, ortiqcha bo'ldi.

Yuqoridagilarning hammasi bir oqimga tegishli Yangi davrning ikki buyuk olimi o'rtasidagi munozara edi. Ularning ikkisi ham nufuzlarga ko'r-ko'rona ergashishga qarshi chiqdi va erkin ilmiy taraqqiyot uchun kurashdi, ular insonning "sog'lom nurli tafakkur"iga, tajribaga, eksperimentga katta urg'u berdi. Zero, Dekart va Paskal konkret-ilmiy sohada turli yo'nalishdan ketgan bo'lsa ham, xususiy masalalarni hal qilishda bir-biriga qarshi bo'lsa ham – fanda ularni bir-biriga dushman deb bo'lmaydi. Ilmiy metodologiya sohasida, ilmiy bilim tamoyillarini tushinishda ular opponent emas, balki hamfikir bo'lganlar. Bizning fikrimizga ko'ra, ularni qarama-qarshi qo'ygan mualliflar nohaq. Paskalcha induktivlik va dekartcha deduktivlik bir hodisaning ikki tomonidir. Inchunun, Paskalga Dekart ta'limoti ta'sir ko'rsatgani aniiq dalildir.

Noel bilan munozarasida Paskal haqiqatni ilmiy tadqiq etishning "yagona qoidasini" shakllantiradi.



*Birinchidan*, “tasavvur yoki tafakkurning bilish darjasida aniq va lo’nda tasavvur hosil qiladigan narsa yo hodisani qabul qilish” va ishonchli dalillarni belgilash, ya’ni hech qanday shubha uyg’otmaydigan holatlarni, “aksioma yoki tamoyillarni, masalan, ikki teng narsaga, teng yarimdan qo’shsak, teng narsa hosil bo’ladi...” (Pascal, 1963: 201).

*Ikkinchidan*, aksiomadan mutlaq zaruriy natijani keltirib chiqarish, uning haqiqatligi aksiomaning haqiqiyligidan kelib chiqsin. Bu ikkilangan qoida, Paskalning ta’kidiga ko’ra, har qanday “xayolotdan, ko’rinishdan, inijlikdan” ehtiyot qiladi, bunday hodisalarga fanda o’rin yo’q. Ana shu karteziyancha tamoyillarni Paskal ke-yinchalik o’zining “Geometrik tafakkur va ishontrish san’ati” nomli metodologik risolasida ijodiy rivojlantiradi. Bu asar Por-Royalda “Mantiq yoxud fikrlash san’ati” asari uchun tayyorgarlik rolini o’ynaydi.

Ushbu asarda Paskal Dekart singari matematik bilimlarning qat’iyligidan va apodiktivligidan hayratga tushadi, bu uning quyidagi aforizmidan shunday ifodalanadi: “Geometriyadan yuqori narsa, bizdan ham yuqoridir” (Pascal, 1963: 349). “Mukammal ilmiy uslub” g’oyasini ilgari surib Paskal, uni amalga oshirishni ilmiy bilim tuzilishini aksiomatik-deduktiv usuli bilan bog’laydi, bu matematikada keng qo’llaniladi. Agar Dekart o’zining uslubini evristik deb atagan bo’lsa, Paskal evristikani haqiqatni isbot qilish mantig’idan ajratadi. Haqiqatni ochishga emas, balki uni isbot qilish va yolg’ondan ajratishga urg’u beradi. Shu nuqtayi nazardan “mukammal uslub” mazmuni quyidagicha ifodalanadi: “hamma terminlarni aniqlash, hamma holatni isbotlash” va “hamma holatni muayyan tartibda joylashtirib chiqish” (Pascal, 1963: 348-349). Lekin bu talabni cheksiz regress tufayli amalga oshirib bo’lmaydi. Noma’lum “birlamchi terminlar”ni doimiy sharhlash hamda isbot talab qilmaydigan aksiomalar zarurati paydo bo’laveradi. Paskal o’z uslubining oltita qoidasini ilgari suradi, ularni “geometrik” deb ataydi.

#### **Difinitsiyalar uchun:**

- 1) Hammaga ma’lum terminlarni aniqlamaslik;
- 2) Difinitsiyasiz ikki xil mazmuni bor va noma’lum terminlar kiritmaslik;
- 3) Difinitsiyalarda har doim ma’lum yoki tushunarli bo’lgan terminlarni qo’llash.

#### **Aksiomalar uchun:**

- 1) Ular qanchalik aniq yaqqol bo’lsa ham, tadqiqsiz hech qanday zaruriy tamoyillarni qo’llamaslik;
- 2) Aksiomalarda yetarli darajada aniq bo’lgan holatlarni belgilash.

#### **Isbot uchun:**

- 1) O’z-o’zidan yaqqol bo’lgan holatlarni isbotlamaslik;
- 2) O’zidan ma’lum bo’lgan yoki ilgari isbotlangan mulohazalar orqali hamma holatlarni isbotlash;
- 3) Isbotlash jarayonida ikki xil mazmunli terminlarni qo’llamaslik, anqlovchini aniqlanayotganlik bilan o’rnini almashtirib yubormaslik (Pascal, 1963: 356-357).

Ana shu qoidalar aqliy uslub ishlanmasiga, Por-Royal “Mantiq...”i ilmiy bilimlarining “kompozitsiya metodi”ga kirdi. Bu uslub karteziyancha analitik uslubdan yoki “masalani yechuvchi, kashf qiluvchi uslub”dan farq qiladi. Por-Royal mantiqshunoslari olimlarning evristik intuitsiyalariga katta ahamiyat beradilar.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Shunday qilib, Paskal Dekartning metodologiyasini unga tayangan holda rivojlantiradi. Nazariy bilim strukturasida intuitsiya va deduksiyaning ahamiyatini tan olgan holda, Paskal intuitsiyani Dekartga qaraganda boshqacha talqin qiladi. Buyuk ratsionalist uchun “haqlik hissiyotga emas, faqat aqlga tegishli, shunda u narsalarni aniq-tiniq ko’radi”, shuning uchun ham intuitsiya ham, deduksiya ham faqat intellektual bo’ladi.

Dekartga nisbatan Paskal “tabiiy nur” sohasini kengaytiradi. Unga “bilish darajasiga qarab” faqat aqlidan tashqari, tashqi tuyg’u intuitsiyasini hamda ichki hissiyot – “qalb”ni qo’shadi. Aqlning vazifasi aniq ta’riflar va qat’iy, ketma-ket bir-biriga bog’langan, mantiqiy isbotdan iborat, lekin u shu bilan cheklanadi. Shunda aql his-tuyg’u, “qalb”ning zarurligini tan olishi kerak. Dekartdan farqli ravishda Paskal tashqi hissiyot darajasida bilimning “yaxlitligi va yaqqolligini” tan oladi. “Hissiy qabul qilish” o’z-o’zidan doimo haq bo’ladi. Agar “dastlabki tushuncha va aksiomalar” orqali matematik predmetlarni bilish intuitsiyadan boshlansa, tabiat hodisalarini bilish hissiy qabul qilish tajribasidan boshlanadi. Ular ko’rgazmali haqiqat bo’ladi. Matematikada “dastlabki tamoyillarning” (bular makon, zamon, harakat, son va boshqalar) “tana a’zosi” intuitsiyasi, Paskalning tasdig’iga ko’ra, inson “qalb”i hisoblanadi. U bizning eng chuqur hissiy tabiatimizdir yoxud “bilish instinktimiz”dir.





### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cousin, V. (1857). Etudes sur Pascal. – P., 325 p.
2. Droz, E. (1886). Etudes sur le scepticisme de Pascal. – P., 236 p.
3. Chestov, L. (1923). La nuit de Gethsemani. – P., 325 p.
4. Bruschvicg, L. (1944). Descartes et Pascal. Lecteurs de Montaigne. – N. Y., 294 p.
5. Le Guern, M. (1971). Pascal et Descartes. – P., 379 p.
6. Стрельцова, Г.Я. (1979). Блез Паскаль. – М.: Мысль, 283 с.
7. Декарт, Р. (1950). Избранные произведения. –М.: Мысль, 587 с.
8. Pascal, B. (1963). Oeuvres completes [par L.Lafuma]. – P., 641 p.
9. Descartes. (1960). Correspondence (par Ch. Adam et Michaud), t. 7. – P., 476 p.
10. Ruzmatova, G. (2019). Eastern melodies in the text of Plato. International Journal of Recent Technology and Engineering. 8(7).444-448.
11. Ruzmatova, G. (2020). Comparativist analysis of Representations about Will in View of Friedrich Nietzsche and Jalaliddin Rumi. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(4). 3215-3227.
12. Rakhimjanova, D.S. (2019). Features of the freedom issues in the Plot's philosophy. International Journal of Advanced Science and Technology. 28(16). 1560-1564.
13. Ruzmatova, G.M. (2023). Comparative studies of the Oriental and Western antropology // ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (128), 191-195. Philadelphia, USA / Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-128-13>.
14. Ruzmatova, G. (2014). Ruhیات tahlili falsafasi. –Toshkent: Nishon-noshir, – 240 b.
15. Ruzmatova, G.M. ( 2023). Konfutsiychilik axloqiy negizlarida olamiy tartibot // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal. 11(12), 916-923. / Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 1**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.